

"O'zkimyosanoat" AJ, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda "ACWA Power UKS Green H2" qo'shma korxonasi o'rtasida Kredit va Kafolat shartnomalari imzolandi.

// 12.09.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-yevropa-tiklanish-va-taraqqiyot-banki-hamd>



"O'zkimyosanoat" AJ, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda "ACWA Power UKS Green H2" qo'shma korxonasi o'rtasida Kredit va Kafolat shartnomalari imzolandi.

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi bilan hamkorlikda Toshkent viloyatida MDH davlatlari va O'rta Osiyoda yagona bo'lgan yashil vodorod ishlab chiqarishni tashkil etish yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyiha doirasida elektrolizerlar o'rnatish orqali vodorod ishlab chiqarish va elektrolizerlar iste'molini qoplash uchun shamol turbinalarini o'rnatish rejalashtirilgan.

Ahamiyatlisi, joriy yilning 10-sentabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati, "ACWA Power" kompaniyasi

hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki vakillari ishtirokida, loyihani moliyalashtirish uchun eng yirik moliya institutlaridan biri - Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan kredit resurslari (Equity Bridge Loan) jalb qilinishi yuzasidan Kredit va Kafolat shartnomalarini imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Shuni ham ta'kidlash lozim, mazkur o'zlashtirilayotgan past foizli kredit resurslari davlat kafolatisiz to'g'ridan-to'g'ri loyihani moliyalashtirishga yo'naltiriladi.







“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati